



## Abul Fath Said Amir Haydar Bahadur Padishah – diplomacy of “Amiri Said”

Dilnavoz SHOYOQUBOVA<sup>1</sup>

Termez State University

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received September 2022

Received in revised form

25 October 2022

Accepted 20 November 2022

Available online

25 December 2022

**Keywords:**

mangit clan,  
archive,  
ambassador,  
pilgrimage,  
Manchurians,  
book,  
notebook,  
letter,  
Basra,  
blessing,  
khilat.

### ABSTRACT

This article provides information about the diplomatic relations of the Bukhara Emirate with Russia, China, Iran, Afghanistan, and the Ottoman Turks during the reign of Amir Haydar (1800–1826).

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss11/S-pp138-143>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Abul Fath Said Amir Haydar Bahodur Podshoh – “Amiri Sayyid”ning diplomatiyasi

**Kalit soʻzlar:**

mangʻit urugʻi,  
arxiv,  
elchi,  
haj ziyorati,  
manchjurlar,  
kitob,  
daftardor,  
maktub,  
Basra,  
marhamatnoma,  
xilʻat.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Amir Haydar (1800–1826) hukmronlik qilgan davrda Buxoro amirligining Rossiya, Xitoy, Eron, Afgʻoniston, usmonli turklar bilan boʻlgan elchilik munosabatlari haqida maʼlumotlar keltirilgan.

<sup>1</sup> Master of Termez State University. E-mail: [rustamkhurramov@mail.com](mailto:rustamkhurramov@mail.com).

# Абул Фатх Саид Амир Хайдар Бахадур Падишах – дипломатия «Амири Саида»

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

род мангит,  
архив,  
посол,  
паломничество,  
маньчжуры,  
книга,  
тетрадь,  
письмо,  
Басра,  
благословение,  
хилат.

В данной статье представлены сведения о дипломатических отношениях Бухарского эмирата с Россией, Китаем, Ираном, Афганистаном и турками-османами в период правления Амира Хайдара (1800–1826 гг.).

## KIRISH

Tarixdan ma'lumki, O'rta Osiyoda Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklari mavjud bo'lgan. Buxoro xonligi, keyinchalik 1756-yildan boshlab, amirligi, tariximizning davlatchilik bosqichida alohida ahamiyat kasb etadi. Har qaysi hukmdor hokimiyat tepasiga kelgach ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotda ma'lum bir o'zgarishlarni amalga oshiradi. Shu o'rinda Buxoro amiri Haydar ham o'z hukmronligi davrida davlatni yuksaltirish, mustahkamlash uchun ma'lum chora-tadbirlarni amalga oshirgan. Maqolaning dolzarbligi Amir Haydar davridagi Buxoro amirligining Rossiya, Eron, Usmonli turklar, Xitoy, Afg'oniston kabi davlatlar bilan diplomatik munosabatlarini, tashqi savdosini ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etib, manbalar, arxiv hujjatlari asosida xolislik bilan o'rganish, bugungi va kelajak avlodni haqqoniy tarixdan boxabar etishdan iborat.

Amir Haydarning Rossiya bilan elchilik munosabatlari shu kunga qadar tadqiqotlarda yoritilgan. Ushbu maqolada usmonli turklar, Xitoy, Eron va Afg'oniston davlatlari bilan elchilik munosabatlari yoritib berilgan.

Muammoning manbashunosligi va tarixshunosligi. Buxoro amirligining tashqi siyosati haqida ko'plab tarixchilar ilmiy tadqiqolarni amalga oshirgan. Ushbu maqolada A. Xodjayev, N. Karimovanning "O'zbekiston-Xitoy munosabatlari tarixidan", J. Shodiyevning "Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi", "O'zbek diplomatiyasi tarixidan (tarixiy ocherk va lavhalar)" va "O'zbekistonda elchilik xizmati tarixidan: talqin va tahlil" respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamidan (2016-yil), "Markaziy Osiyo tarixi va arxeologiyasi: ana'ana, innovatsiya va istiqbollari" xalqaro ilmiy amaliy anjuman materiallaridan (2021-yil) foydalanilgan.

## MAQOLANING ASOSIY MAZMUNI

XVIII asrning ikkinchi yarmida Buxoro xonligida ashtarxoniylar hukmronligiga qarshi o'zbek urug'lari isyon va g'alayonlar ko'tarishgan. Ular orasida o'zbeklarning mang'it urug'idan chiqqan, ashtarxoniylar saroyida yuqori lavozimlarda ishlagan Muhammad Hakimbiy otaliq va uning o'g'li Muhammad Rahimbiy alohida ajralib turgan. Natijada Muhammad Rahimbiy 1753-yili yirik amaldorlar, ruhoniylar va urug' oqsoqollarining roziligi bilan Buxoro taxtini egallaydi. Ushbu davrdan boshlab, xonlikda 1920-yilga qadar mang'ilar hukmronligi boshlanadi. Mang'it hukmdorlari orasida Amir Haydarning hukmronligi tinimsiz ravishda ichki va tashqi muholiflarga qarshi

kurashganligi bilan ajralib turadi. Shuni ta'kidlash joizki, bu kurashlarda Amir Haydar qator muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritgan. Uning hukmronlik davriga e'tibor qaratsak, Buxoro amirligining boshqa davlatlar bilan diplomatik munosabatlari rivojlangan. U Rossiya, Eron, Afg'oniston, Xitoy, uUsmonli turklar, shuningdek, qo'shni davlatlar Qo'qon hamda Xiva xonliklari bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida diplomatik munosabatlarni mustahkamlashga harakat qilgan. Rossiya imperiyasi bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi diplomatik munosabatlar to'g'risida ko'plab tarixchilar tadqiqotlar olib borgan. Buxoro amirligi bilan Rossiya o'rtasida XIX asrning dastlabki choragida ham diplomatik aloqalar to'xtab qolgan emas. 1801-yilda Amir Haydar tomonidan Boykischev boshchiligida dastlabki elchilar Rossiyaga jo'natilgan. 1803-yili Mirgalauddin Mirmuhammad Aminov boshchiligida 25 kishilik elchilar, 1814-, 1818-yillari Azimjon Mo'minjonov boshchiligidagi rasmiy elchilar Rossiyaga yuborilgan. 1825-yili har ikki davlat o'rtasidagi do'stlik aloqalarini mustahkamlash va savdo-sotiqni rivojlantirish maqsadida Beknazar Abdurasulov boshchiligidagi elchilar Peterburgga jo'natiladi, lekin ushbu elchilik vazifasi Beknazar Abdirasulovning vafoti tufayli amalga oshmay qoladi, 1826-yilda shu maqsadda Beknazar Abdukarimov boshchiligidagi elchilar Peterburgga yuborilgan. Rossiya imperiyasi tomonidan 1804-yilda poruchik Gaverdovskiy boshchiligidagi rus elchilari Buxoroga yuborilgan, lekin yo'lda qarochilar hujumiga uchrab orqaga qaytib ketadi.

1809-yili 17-oktabrda Orenburgdan Subhonqulov va uning yordamchisi Rahmonqulov boshchiligida rus elchilari Buxoroga yo'l olgan, 1810-yil 28-yanvarda Buxoro amiri Haydar tomonidan qabul qilingan. 1820-yilda esa Negri boshchiligidagi elchilik missiyasi Buxoroga kelgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, rus elchilik missiyasi tarkibidagi elchilar tomonidan yozilgan asarlar, safarnomalar, esdaliklar Buxoro amirligi davlatchilik tarixi haqida muhim ma'lumot beruvchi manba bo'lib, hozirga qadar tadqiqotchilar tomonidan foydalanib kelinmoqda.

XVIII asrning oxirlariga kelib, usmoniylar davlati O'rta Osiyo xonliklari bilan hamkorlik qilishdan manfaatdor edi. Usmoniy hukmdorlardan Abdulhamid I (1774–1789), Sulton Salim III (1789–1807)lar Doniyolbiy otaliq va Amir Shohmurod bilan do'stona munosabatda bo'lib, har ikki davlat o'rtasida elchilar qatnab turgan. Turkiya arxiv hujjatlaridagi ma'lumotlarga qaraganda, usmoniylar va Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlarda sovg'a-salomlar almashinuvi, Makkaga hajga boruvchi ziyoratchilarga yordam ko'rsatish, kitoblar, ayniqsa, islom diniga oid muqaddas kitoblar sanalmish Qur'on, fiqh va tafsirga oid kitoblarni sovg'a qilish kabi holatlar muhim ahamiyat kasb etgan. Amir Haydar hukmronligining dastlabki davridayoq usmoniylar davlati bilan tashqi siyosiy va diplomatik munosabatlarni mustahkamlash maqsadida Sulton Salim III huzuriga devonbegi Eshmuhammad va Mirza Muhammad Yusuf qo'rboshini maktub bilan elchi qilib yuboradi. Buxoro amiriga javob o'rnida yuborilgan nomada shunday deyiladi: "Amir hazratlari yuborgan nomangiz va hadyalarigiz elchingiz vositasida bizlarga yetib keldi. Otangizning vafotini eshitib qayg'uga botdik. Qayg'uyimizni sizning taxtga chiqqaningiz biroz bo'lsa-da, yengillashtirdi. Izhor qilgan do'stligingiz davomiy bo'lsin" [1]. 1812-yilda Ost-Indiya kompaniyasi vakillari Muhammad Fozilxon va Mir Izzatillo Buxoro amirligiga elchi sifatida kelib ketgach, Amir Haydar tomonidan Mirza Muhammad Yusufbey boshchiligida maxsus elchilik guruhi usmoniylar sultoni Mahmud II ning huzuriga jo'natiladi. Uning qo'lga topshirilgan maktubda O'rta Osiyodagi siyosiy vaziyat xususida to'xtalib, pardali so'zlar orqali Ost-Indiya kompaniyasi bilan aloqalar o'rnatilganidan Mahmud II ni (1808–1839)

xabardor qilib qo'yadi. Amir Haydar maktubida usmoniylar sultoniga "bu yerda fiqh kitoblariga muhtojlik kuchayib ketganligi", ya'ni qattiq tartib-intizom o'rnatish lozimligi, "Hindistondan ana shu masalaga oid bir qancha kitoblar keltirildi-yu, ammo ular kifoya qilmayotibdi", ya'ni Hindiston bilan yaxshi aloqalar o'rnatilganligi, ammo unga O'rta Osiyoda yagona hukmron bo'lish uchun islom xalifasining fatvosi lozimligi bayon qilingan edi [4]. Amir Haydar maktub oxirida so'nggi masala yuzasidan ochiq murojaat qilishni lozim topgan: "Movarounnahr, Qazg'an, Dashti Qipchoq, Xorazm, Marvi Shoh Jahon va Dug'lab taraflari, Balx va Badaxshon o'lkalari mutloq va bevosita bizning mulkimiz bo'lib kelgani, bu mamlakatlarning hokimlari qadimdan Buxoro xoni tarafidan tayinlanib kelinganligi va hozirda ham shunday bo'lmog'i lozimligi ma'lum. Ammo Qazg'an va Xorazm viloyatlari hokimlarining ba'zan itoatdan chiqish hollari yuz bermoqda. Buxoro amirligining ushbu hududlari, davlati oliyingizning itoatkor bir tobe ekanligimizni inobatga olgan holda, bizning mulkimiz ekanligini tasdiqlaydigan bir manshur (farmon) yuborilishini so'rayman". Lekin Amir Haydar turk sultonidan bunday fatvo ololmaydi [4]. Ushbu maktub yozilgan vaqtini A.A. Semyonov unda qayd etilgan Rossiyaning Fransiya ustidan g'alaba qozonganligi haqidagi jumlagi asoslanib, u 1815-yildan keyin yozilgan bo'lishi mumkin, deb hisoblaydi. Turkiya arxiv hujjatlarida Amir Haydarning elchisi Muhammad Yusuf Istanbulga kelib, sultonga maktub va hadyalar olib kelganligi qayd etilgan. Elchi saroyda qabul qilinib, sovg'a almashish jarayonida unga xil'at (usmoniylar davlatida yuqori nufuzdagi elchilarga in'om etilgan hadya) va samur mo'ynasi sovg'a sifatida topshirilgan. Shuningdek, sadriazim, shayxulislom va kapitan podsholar bilan Istanbulning diqqatga sazovor joylarini aylanganlar, dam olish joylariga tashrif buyurishib, unga ziyofat berilgan. Muhammad Yusuf sultonning javob maktubini olib, Hijozga ketgan [6]. Z. Rahmonqulovning ta'kidlashicha, Buxoro elchisi Muhammad Yusuf kutilmaganda Istanbulda vafot etgan. Usmoniylar hukumati bu holatdan o'ngaysizlanib, elchining buyumlarini Buxoroga yuboradi. Buxoro amiriga yozilgan javob maktubida Mirza Muhammad Yusuf vafot etgani tufayli o'z ta'ziyalarini bildirgan. Shuningdek, amir so'ragan 32 jild kitobni Bag'dod voliyi Dovud poshoning a'yoni Hasan Chalabiy (manbalarda Basraning daftardori bo'lganligi keltirib o'tiladi) orqali jo'natilyotganligi to'g'risida ham xabar berilgan. Unda vafot etgan elchining buyumlari oilasiga topshirilishi qayd etib o'tilgan [3]. 1819-yili mart oyida Xoji Mahmud Sharif (ayrim manbalarda Muhammad Sharif deb keltirilgan) boshchiligidagi elchilik missiyasi yuboriladi Amir Haydar usmoniylar sultoniga javohirlar bilan bezatilgan kosa sovg'a qilib yuboradi. Amir Haydar Buxoro amirligining usmoniylar davlatidagi elchisi Mirza Muhammad Yusuf hamda uning vafotidan so'ng elchi Muhammad Fozil orqali yuborgan nomalarida siyosiy munosabatlarni mustahkamlash haqida so'z yuritmasdan, balki ko'proq ikki davlat o'rtasida madaniy va iqtisodiy hamkorlik borasidagi takliflar izhor etilgan edi [7]. Turkiya Respublikasining Istanbuldagi Boshbakanlik arxivida saqlanayotgan hujjatlar Buxoro amirigidan usmoniylar davlatiga elchilik faoliyati bilan borgan kishilarning haj ziyoratiga ham borganligini ko'rsatadi. Muhammad Fozil 1820-yil, 1824-yil avgust, 1826-yil avgustda, 1827-yil iyulda usmoniylar sultoni qabulida bo'lib, Buxoro hukmdorining maktub va hadyalarini sultonga topshirgan. Boshbakanlik arxivi fondlaridagi hujjatlarga ko'ra, sulton tomonidan Muhammad Fozilga xarajatlari uchun pul mablag'lari ajratilgan. Hujjatlarda sulton tomonidan Muhammad Fozilga 7500 qurush pul mablag'i ajratish haqida buyruq berganligi, yo'l davomida unga sharoit yaratib berganligi, Eron shohi huzurida bo'lganligi haqida sultonga yozgan maktublari haqida ma'lumotlar mavjud [8].

XIX asrning dastlabki choragiga oid tarixiy manbalardan bizga ma'lumki, Eron va Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlar ijobiy bo'lmagan. Bu davlatlar o'rtasida tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turgan. Qul savdosi har ikki davlat o'rtasidagi do'stona munosabatlarni o'rnatilishiga to'sqinlik qilib kelgan. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, har ikki davlat hukmdorlari o'zaro diplomatik munosabat o'rnatishga ham harakat qilishgan. 1813-yilda Amir Haydar Turkiya va Eronga Ali Rizo boshchiligida elchilik guruhini yuborgan. Buxoro amirining maktubida diplomatik yozishmalar savdo aloqalari yo'lidagi to'siqlarni bartaraf qilish, savdo karvonlarini talovchilarga nisbatan muayyan chora-tadbirlar ko'rish maqsadida yozilganligi yaqol ko'zga tashlanadi. O'zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan "Maktuboti Amir Haydar" nomli majmuada Eron shohi Fathalishoh huzuriga Amir Haydarning Xoji Muhammad Sharifbey tomonidan yuborilgan maktubi joy olgan. Mirza Xoji Eronga 1819-yilning 4-martida jo'nab ketgan. Demak, Xoji Muhammad Sharifbey ushbu yilda Amir Haydarning nomidan ham Eron, ham usmonlilar davlatiga elchi bo'lib borgan va amirning nomalarini yetkazgan. Ushbu elchidan Buxoro qushbegisi Muhammad Hakim ham Eron vaziri Mirza Shafe'ga o'z maktubini berib yuborgan.

Afg'oniston va Buxoro amirligi o'rtasidagi ozaro aloqalar XVIII asrga kelib ancha jonlandi. Chunki bu davrda, 1747-yilda Afg'onistonda rasman yangi sulola durroniylar imperiyasiga asos solinadi. Buxoro amirligida esa 1753-yilda mang'itlar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi bilan o'zaro aloqalar jonlangan. 1804-yilda Shujo al-mulk Afg'oniston taxti tepasiga kelgach, Buxoro amiri Haydar uni muborakbod etib, o'z elchisini jo'natgan. Elchi orqali yuborgan maktubda do'stlik munosabatlarini mustahkamlash hamda shialarga qarshi birgalikda kurashish haqida fikr, "ota-bobolar o'stirgan do'stlik daraxtinining yanada gullab-yashnashi"ga umid bildirgan. Shuningdek, u Xiva xoni Eltuzar ustidan g'alaba qozonganligini ham ushbu maktubda qayd etib o'tgan [4]. Muhammad Hakimxon To'raning "Muntaxab at-tavorix" asarida keltirilishicha, Afg'oniston hukmdori Zamonshoh qarindoshi Mahmudshoh tomonidan taxtdan tushirilib ko'ziga mil tortilgach, Buxoroga keladi. Amir Haydar uni kutib olish uchun o'zining mulozimlarini yuboradi. Shulardan biri Rajab devonbegi bo'lib u bu haqida quyidagicha hikoya qiladi: "Mir Haydar podshoh bir necha narsani mulohaza qilgan ko'yi bir kechasi mehmonni o'z huzuroga chorladi va ko'rinishxonaning oldiga kelib, istiqboliga peshvoz chiqdi. Afg'on shohi va o'zbek podshohi bir-birini bag'riga bosib ko'rishdilar. Amir mehmonning qadamiga hasanotlar aytib, unga izzat-ikrom ko'rsatdi. Suhbat oxirida ketishga ruxsat berdi va yashab turishi uchun yaxshi bir uy tayin qildi. Ul g'urbatda qolgan shohning bir qizi bor edi. Mir Haydar podshoh ul mastura qizning daragini eshitib, Shoh Zamon huzuriga o'z rasmi bilan sovchilikka odam yubordi. Shoh bu gapdan g'azablandi, va "biz ul zotning ham tengi emasmiz va ham ularning yurtiga musofir sifatida kelib qoldik. Bu ishdan bizni ma'zur tutsalar", dedi. Lekin Amir Haydar Zamonshohning qizini zo'rlik bilan o'z nikohiga oldi. Shoh esa bir necha hasrat va alam dog'i bilan baytulloh sari ravona bo'ldi" [2].

Amir Haydar Xitoy davlati bilan ham o'zaro siyosiy va savdo ishlarini yo'lga qo'yish maqsadida manjurlar bilan diplomatik aloqalarni yaxshilashga harakat qilgan. Shu maqsadda 1816-yili manjurlarning Qashqardagi rasmiy idorasiga elchi yuborgan. O'rta Osiyo davlatlarining diplomatik munosabatlari qoidalariga ko'ra, bu elchi bilan birga amirning maktubi va sovg'a -salomlari ham jo'natilgan edi. Lekin Manjur hukumati tomonidan rasmiy javob bo'lmagan. Bu haqida yapon olimi Toro Soguchining ma'lumot

berishicha, 1821-yilda manchjur noibi Hsiu-kun tomonidan yozilgan hisobotida: “Said amir Haydar Buxorobegi Qashg‘ar begi Hakimga maktub jo‘natib, bundan avvalroq, 1816-yili Buxoro begi Qashg‘ardagi Xitoy hukumatiga o‘lpon jo‘natgan, ammo haligacha Xitoy imperatori a‘lo hazratlarini rasmiy hukumat maktubi yoki sovg‘alarni qabul qilgani haqidagi xabarni olmadik”, deb ma‘lumot beradi. Xitoy diplomatiyasiga e‘tibor qaratsak, imperatorga yuborilgan har qanday sovg‘a-salom o‘lpon yoki xiroj tarzida qabul qilingan. Shuning uchun Hsiu-kun tomonidan yozilgan hisobotda Amir Haydarning sovg‘a-salomi o‘lpon deb keltirilgan. Amir Haydar tomonidan Xitoy imperatoriga yuborilgan ikkita maktub hozirgi davrga qadar saqlanib qolgan. Ulardan biri Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo‘limi qo‘lyozmalar fondi A212 raqam ostida saqlanayotgan “Maktubot va munshaot” nomli qo‘lyozmasining 115 b-116 a-varaqlarida berilgan. Ikkinchi maktub esa Xitoy poytaxti Pekindagi Birinchi ijtimoiy arxivi №03-0211-4593-017 raqami ostida saqlanmoqda [5]. Ushbu maktubni Amir Haydar ko‘plab hadyalar bilan 1805-yil (hijriy 1221-yil) Mir Olim Mutavalli boshchiligidagi elchilardan yuborgan. Amir Haydarning maktubiga Xitoy imperatori javob xati yozmaganligini tarixchilar turlicha talqin qilgan. Buxoroda yashayotgan Yorkend xonligi vorislari hisoblangan xo‘jalarni topshirish haqidagi manchjur imperatorining murojaatnomasiga Buxoro amiri tomonidan javob yozilmaganligi asosiy sabab qilib ko‘rsatilmog‘da.

#### **XULOSA**

Xulosa qilib ta‘kidlash joizki, garchi mamlakatda har 3-6 oyda tinimsiz nizo va qo‘zg‘olonlar bo‘lgan bo‘lsa ham, 1800–1826-yillarda Buxoro amirligining diplomatik munosabatlarida yuksalish yuz bergan. Mamlakat hududiga kelgan elchilarning safarnomalarida Buxoro amirligi bozorlarida Eron, hind, afg‘on kabi ko‘plab yurt savdogarlarining savdo rastalari mavjudligi qayd etilganligi ham tashqi siyosatda Amir Haydar tomonidan amalga oshirilgan ishlarning sezilarli darajada ekanligidan dalolat beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. X. Boboyev, Z. Xidiro, J. Shodiyev, M. Axmedova. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent, 2009. – 246-b.
2. Muhammadhakimxon To‘ra Muntaxab at-tavorix. – Toshkent, 2010. – 60-b.
3. Z. Raxmonkulova. Buxoro amirligi va usmoniy davlati o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar tarixidan // “O‘tmishga nazar”. 2021. – №3. – 403-b.
4. M. Xayrullayev. O‘zbek diplomatiyasi tarixi. (Tarixiy ocherk va lavhalar). Toshkent, 2003. – 130-, 131-, 127-betlar.
5. A. Xodjayev, N. Karimova va boshq. O‘zbekiston-Xitoy munosabatlari tarixidan. – T.: 2022. – 168-b.
6. A. Xoliqulov. Buxoro amirligi va usmoniy davlati o‘rtasidagi muloqotlar haqida ba‘zi mulohazalar. // “Markaziy Osiyo tarixi va arxeologiyasi: an‘analar, innovatsiyalar va istiqbollor” mavzuidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. 2021. – 128-b.
7. J. Shodiyev. Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi. – Toshkent, 2010. – 47-b.
8. M. Taniyeva. Buxoro amirligining usmoniy imperiyasi bilan elchilik munosabatlarida haj ziyorati. // O‘zbekistonda elchilik xizmati tarixidan: tanqid va tahlil. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 2016. – 161-b.